

IZOFALI BIRIKMA SHAKLIDAGI METAFORALAR BADIYYATI

Sevara Baratova Musoxonovna,

O'z RFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institute katta ilmiy xodim,

E-mail: baratovasevara07@gmail.com

ORCID: 0009-0007-8784-3826

Annotatsiya. Maqolada izofali birikma shaklida kelgan, ta'sirchanlik va tasviriylik saqlanib qolgan metaforalar tahlilga tortilgan. Masnaviyalarda qo'llangan izofa shaklidagi metaforalar badiiylikni ta'minlashda muhim vosita ekanligi misollar orqali dalillangan.

Kalit so'z: Lingvopoetika, izofa, forsiy, arabiy, metafora, ko'chim.

Abstract. The article analyzes metaphors expressed in the form of izafat constructions, in which expressiveness and imagery are preserved. Through specific examples, it is demonstrated that metaphors in the izafat form used in masnavis serve as an important artistic device in ensuring aesthetic effect.

Keywords: Linguopoetics, izafat, Persian, Arabic, metaphor, semantic transfer.

Аннотация. В статье анализируются метафоры, представленные в форме изафетных сочетаний, в которых сохраняются выразительность и образность. На примерах доказано, что метафоры в форме изафета, используемые в маснави, являются важным художественным средством обеспечения эстетической выразительности.

Ключевые слова: Лингвопоэтика, изафет, персидский, арабский, метафора, перенос значения.

Kirish. Lingvopoetik tahlilda izofa hamda tamsil qilingan hikmatomuz jumjalarning ham alohida o'rni bor. Ayniqsa, forsiy izofalarning so'fiyona va ramzlar bilan sug'orilgan turlari tasavvufiy, diniy-axloqiy yodnomalarda juda ko'p uchraydi. Bunday birliklarning asarlarda ko'p uchrashini muallif nazarda tutayotgan masalaning kitobxonga ta'sir etish quvvatini oshirish maqsad qilib olingani bilan izohlash to'g'ri bo'ladi. Izofalar asosan fors-tojik adabiyoriga xos unsur hisoblanadi. Mumtoz adabiyot vakillari ijodida izofali birliklar faol qo'llangan. Bunday birliklarni istemolda faol qo'llanganligi o'sha davrda forslarning ta'siri O'rta Osiyoda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar tahlili. "Izofa – arabcha "qo'shish", "bog'lash", fors, arab va ba'zi turkiy tillar grammatikasida: aniqlanmish bilan undan keyin joylashgan aniqlovchini bog'lovchi urg'usiz unsur; bog'lanishning fors tilidan o'zlashgan shunday turi o'zbek tilida ko'pincha undoshlardan keyin "i", unilardan keyin "yi" keltirish bilan hosil bo'ladi..." [1]. Izofali birikmalarda metaforaning mavjudligi mumtoz adabiy asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Albatta, barcha izofali birikmalarda ham metafora mavjud, deyish fikridan yiroqmiz. Metaforaviy birliklar izofaviy birliklar ichida berilar ekan, bunda ikki maqsad nazarda tutiladi. Birinchisi, izofaviy birlikdagi har ikkala so'zga poetik jilo bersa, ikkinchisi fikr yuritilayotgan masalani siqiq jumlada havola etishni nazarda tutadi. Shu sababdan bo'lsa kerak, o'tmish mumtoz poeziyada, qisman bugungi she'riyatda ham izofaviy birliklarga anchagina o'rin beriladi. "Bu xil izofalar eski o'zbek tilida keng qo'llangan: Haki payi, savdayi xam (Lutf.); duri Omman; la'li badaxshan (Javhariy); Parai nanga (Nav.Chd); abi hayvan (Lutf.); bulbuli gulshan (Qambar o'g'li); g'unchayi xandon

(Xorazmiy); bulbuli bo‘stan (Xorazmiy); mahi taban (Said Ahmad)” [2]. Mualliflar XVI asr yodnomasi “Boburnoma”da forsiy izofalar nisbatan kam ishlatilganligini ta’kidlaydilar hamda keyingi davrlarga kelib bunday izofalarning ishlatilish doirasi kamaygan, “qo‘shma so‘zga aylanib, yaxlit bir birikma deb tushuniladigan ayrim tojikcha izofalar saqlanadi, xolos”, – deb yozadilar [3]. “Boburnoma”dagi izofiy birliklar tilshunoslikda monografik planda alohida tadqiq qilingan. M.Amonov yuqorida keltirilgan manbadagi fikrga zid ravishda “Boburnoma”da forsiy izofalar faol qo‘llanganligini ta’kidlaydi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Izofaviy birliklar (asosan forsiy izofalar) ko‘proq fors-tojik she‘riyatining til unsuri hisoblanadi. Biroq turkiy she‘riyatning biz e‘tiborda tutgan davrida forsiy hamda turkiy she‘riyatning chegarasi bo‘lmaganidan, o‘zbek poeziyasida forsiy izofalarni poetizm sifatida ishlatish urfga kirgan. Buning isboti sifatida So‘fi Olloyorning “Sabot ul ojizin” asarini ko‘rsatish mumkin. Undagi izofaviy birliklar asosan islom dini va tasavvufga aloqador bo‘lib, bu orqali shoir fikrining ta’sirchanligini ta’minlaydi, jozibadorligini kuchaytiradi, bir narsani metafora yo‘li bilan biror unsuri o‘xshash yoki tamomila yangicha nomlashga erishadi. Masalan, Allohning kalomi bo‘lgan Qur‘oni karim haqida so‘z borganida, shu nomlanish hamda *Qur‘oni majid* birikmasi forsiy bo‘lsa, *Azim ush-shan*, *Kalomulloh* izofaviy birliklari arabiy hisoblanadi. So‘fi Olloyor ko‘proq forsiy izofalarga e‘tibor qaratgan. Chunonchi, Qur‘oni karim izofasi o‘rnida “Qur‘oni Haq” izofasini qo‘llagan. Ayrimlarida ko‘chim bo‘lmasa ham, ta’sirchanlik va tasviriylilik saqlanib turadi.

Tahlillar va natijalar. Ayrim izofaviy birliklarni ko‘rib o‘taylik:

1) havoyi nafs [5] – bunda metafora mavjud, metafora orqali nafsi ammora o‘tkinchi nafs bo‘lib, kishini din-u diyonatdan uzoqlashtiradi, begona qiladi. Kishi havoyi nafsga berildimi, imon-u e‘tiqodini boy beradi;

2) dunyoyi hech [5] – bu izofaviy birlik shoirning o‘zigagina xos topilmasi. So‘fi Olloyor bu orqali dunyoning o‘tkinchiligi, dunyoga berilish, unga muhabbat qo‘yish xuddi sarobga intilish bilan barobar ekanligiga ishorat qiladi;

3) shaytoni badbaxt [5] – bu izofaviy birlik ham shaytonni baholash (konnotatsiyasi)da kam uchraydigan poetizm hisoblanadi. Islom tarixiga nazar tashlansa, agar Azozil Allohning amriga xuddi farishtalardek bo‘ysunganida edi mal’un-u lain bo‘lmas edi;

4) olami g‘ayb [5] – tarjimasi “g‘ayb olami”; faqat Alloh vata’ologagina ma’lum bo‘lgan olam. Banda ma’rifatni qanchalik chuqur egallamasin Allohga ma’lum bo‘lgan ko‘pgina sirlardan voqif bo‘la olmaydi, degan tushuncha turadi;

5) daryoyi rahmat [5] – bu ham nisbatan mavhum tushuncha; birikmaning konnotativ maromi shundaki, kimki bu yorug‘ olamda Alloh roziligiga erisha olsa, rahmat daryosiga g‘arq bo‘ladi. Izofaviy birlikning har ikkalasida ham metafora mavjud.

6) jannati rizvon [5] – bu o‘rinda jannatning bir qismi, to‘g‘rirog‘i jannat bog‘lari nazarda tutilmoqda;

7) habibi Haq [5] – bu izofa Alloh vata’oloning suyukli payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) ning rutbalari haqidadir;

8) afzali asdaq [5] – bu o‘rinda “asdaq” so‘zining ma’nisiga tushunib yetmoq kerak. Payg‘abarimiz Rasulloh (s.a.v.)ning me’rojga ko‘tarilgan onlari vaqtlarning a’losi sifatida talqin qilinadi, ana shu holatda metafora yuzaga keladi;

9) najmi xidoyat [5] – xidoyat yulduzi; metaforaga to‘yintirilgan bu izofaviy birlikda sahobayi kiromlar baholanmoqda;

10) orifi billoh [5] – aziz-avliyolar borasida so‘z borganda ishlatiladigan izofaviy birlik; “orif” – ma’rifatni egallagan kishining sifati;

11) sohibi roz [5] – bu izofa Payg‘abarimiz Rasulloh (s.a.v.)ning xos sifati ma’nosida diniy adabiyotlarda ko‘p ishlatiladi; metafora bilan to‘yintirilgan;

12) azobi qabr [5] – metaforasiz izofa, biroq ta’sirchanligi yuqori darajada;

13) mag‘zi dil [5] – bu izofaviy birlikda “mag‘iz” so‘zi metafora vazifasini bajarmoqda, dilda o‘rinlashgan ma’noga ishora;

14) duri rahmat [5] – bu izofaviy birlikda “dur” so‘zi metaforik xususiyat kasb etib, komil kishining qalbi tozaligiga ishora qilmoqda;

15) mag‘firat daryosi [5] – izofaviy birlikda banda Allohga iltijo qilib, bilib-bilmay qilgan gunohlari uchun mag‘firat qilishini so‘rashda qo‘llaydi va, so‘zsiz, bunda ham metaforadan foydalanilgan.

“Sabot ul-ojizin”, “Rohati dil” va “Husn-u Dil”da bu kabi izofaviy birliklar benihoya ko‘p uchraydi. Shunisi borki, bu izofaviy birliklarning deyarli barchasida metaforalar ishtirok etib, izofaga yuklangan tushunchani aniq va obrazli ifodalashga bo‘ysundirilgan.

Masnaviyalarda qo‘llanilgan izofa shaklidagi metaforalar badiiylilikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lish bilan birga, ta’sirchanlikni oshirishga, ta’kid ma’nosini ifodalashga ham xizmat qilgan. Quyidagi misrada shoir o‘zining holatini izofali birikma orqali tasvirlaydi:

Nasabda Ravshaniy, mavludi Chimyon,

G‘aribi xoksori dil parishon (6).

Quyidagi misralarda mumtoz adabiyotimizda keng qo‘llanilgan *to‘ti* va *zog‘* birliklari ma’noni kuchaytirishga yordam bergan.

Tovusi xurram edim to‘tiyolarg‘a hamnishin,

Voy netaykim, zog‘i zag‘ang‘a oshno qilg‘on firoq (6).

Xulosa. Asarlarning yaratilish davrida forsiy hamda arabiy izofalarning ko‘p qo‘llanganligi masnaviyalarda ham o‘z aksini topgan. Bu bugungi kun o‘quvchisiga bir muncha qiyinchilik tug‘dirishi mumkin, ammo asarlarning o‘z davrida mashhur bo‘lganligini, maktablarda manba sifatida foydalanilganligini hisobga olsak, masnaviyalar tili o‘z davri o‘quvchilari uchun qiyinchilik tug‘dirmagan, tushunarli bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli, 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-maatba ijodiy uyi, – B. 580.
2. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б. 253.
3. Ko'rsatilgan asar, o'sha bet. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. – Б. 73.
4. Амонов М. Бобурномадаги изофий бирикмаларнинг лисоний тадқиқи. Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) дисс. ...афтореф – Фарғона, 2021. – 125 б.
5. Rashid Zohid. Ravoyihur rayhon. So'fi Olloyor "Sabot ul-ojizin" sharhi. – T.: Sharq, 2018. – B. 84, 48, 50, 51, 55.
6. Хувайдо. Роҳати Дил. – Т.: Халқ мероси нашр, 1994. – Б. 16,105.

